

Suvni sho'rsizlantirish tizimlari samarali ishlatilmoqda

2020-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida O'zbekistonning cho'l artezian suvlari uchun nanostrukturali materiallardan foydalangan holda suvni sho'rsizlantirish blok-modulli tizim yaratish ilmiy loyihasi amalga oshirilmoqda.



Bugungi kunga kelib loyiha doirasida ishlab chiqilgan tuzsizlantirish tizimlarining tajribaviy namunalari Navoiy kon-metallurgiya kombinati davlat korxonasining xodimlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida bir nechta obyektlarida o'rnatildi va muvaffaqiyatli ishlatilib kelmoqda. Shu qatorda Navoiy kon-metallurgiya kombinati markaziy kon boshqarmasi "Muruntov" koni, Uchquduq shahri Shimoliy kon

boshqarmasining "KONCHI" dispanseri, Zarafshon shahar Markaziy ma'dan boshqarmasining 2-sonli gidrometallurgiya zavodida mazkur tizim ishlatilmoqda.

2021-yil aprel oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanidagi bolalar bog'chalaridan birida Yadro fizikasi institutida ishlab chiqarilgan tuzsizlantirish tizimi o'rnatildi. Institut tomonidan amalga oshirilayotgan mazkur loyiha respublikamizning markaziy suv ta'minotidan uzoklashgan hududlarini va qishloq aholisini yuqori sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.